# Xabaringiz bor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan Farg‘ona viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar, sohalarda olib borilayotgan ishlar holati va muammolarni o‘rganish, tashkiliy chora-tadbirlarga uslubiy ko‘maklashish, o‘

Xabaringiz bor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan Farg‘ona viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar, sohalarda olib borilayotgan ishlar holati va muammolarni o‘rganish, tashkiliy chora-tadbirlarga uslubiy ko‘maklashish, o‘rganish ishlari olib borilmoqda. Ishchi guruh a’zolari Toshloq tumanidagi 2-umumta’lim maktabida bo‘lib, bu yerdagi ”Islohot-amaliyot-natija” shiori ostida tashkillangan tadbirda ishtirok etdilar.

Tadbirda so‘z olganlar ta’lim sohasida amalga oshirib kelinayotgan dolzarb masalalar yuzasidan ishtirokchilarga ma’lumot berdilar.

Samimiy va ochiq muloqot ruhida o‘tgan uchrashuvda maktab direktorlari va maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining ushbu masalalarga oid takliflari tinglandi.

2025-02-08 13:30:16